
"Piyozchilik" mahallasida "Sport salomatlik garovi" shiori ostida xotin-qizlar o'rtasida sport musobaqalari tashkil etildi.

Ayni damda "Piyozchilik" mahallasida "Obod xonadon - obod ko'cha - obod mahalla" mezonlarini joriy etish maqsadida keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugun mahalla aholisi ishtirokida tuman oila va xotin-qizlar bo'limi va tibbiyot birlashmasi hamkorligida sport musobaqalari tashkil etildi. Tadbirni tuman hokim o'rinbosari U. Marasulova ochib, oilalar tinchligi va farovonligi, oilada tibbiy madaniyatni oshirish to'g'risida gapirib o'tdi.

Tibbiyot birlashmasi salomatlik va strategik rivojlanish bo'limi xodimlari tomonidan "Sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik"ni targ'ib qiluvchi ko'rgazmalar tashkil qilindi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi bukletlar tarqatildi.

Tadbir doirasida piyoda yurish marafon, shaxmat, shashka, tennis musobaqalari o'tkazildi.

G'oliblar homiylar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

2024-02-16 14:08:43